

O'ZBEKISTON ICHKI SIYOSIY TARAQQIYOTI TRENDLARI VA TASHQI SIYOSAT MASALALARI

Muzafarov Javohir Ulugbek o'g'li, JIDU Xalqaro munosabatlar fakulteti 3-bosqich talabasi E-mail: javohirmuzafarov20020608@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatdagi o'zgarishlar tadqiq etiladi va respublikaning tashqi siyosatdagi ustuvor yo'nalishlariga siyosiy baho beriladi. Tadqiqot, shuningdek, o'z ichiga respublikaning tashqi siyosatdagi asosiy savdo va iqtisodiy sheriklari bilan bo'lgan munosabatlarini tahlil qiladi va munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini yoritib beradi. Undan tashqari, mamlakatning turli integratsion loyihalarda ishtiroki va ulardagi manfaatlari yuzasidan batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Xitoy, Rossiya, Markaziy Osiyo, sammit.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida xalqaro maydonda e'tirof etilgan davrdan boshlab o'zining mustaqil tashqi va ichki siyosatini olib borishni boshladi. Boshqa davlatlar singari zamon va davr o'zgarishi natijasida respublikaning ham ichki va tashqi siyosatdagi asosiy masalalar va ustuvor yo'nalishlari ham bosqichma-bosqich o'zgarib bordi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida ichki va tashqi siyosatdagi asosiy vazifa sifatida suverenitet masalasi turgan bo'lsa, hozirgi kundagi hukumatning asosiy e'tibori respublikani imkon qadar ko'proq xalqaro jamiyatga integratsiyasini ta'minlashdan iborat bo'lib turibdi. Ichki siyosatdagi hukumatning asosiy vazifasi aholining tinchligini ta'minlashdan iborat bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, asosiy urg'u xalqning iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilash, hukumat va davlat o'rtasidagi siyosiy rishtalarni yanada mustahkamlash va respublikada yashayotgan barcha millat va elatlarning hamjihatligini ta'minlashdan iborat bo'lib qolmoqda. Tashqi siyosatdagi munosabatlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu yerda ham ba'zi bir o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Oldingi hukumat davrida tashqi siyosiy masalalar yuzasidan dixotomik geosiyosiy qarash ustunlik qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, buning

o'rnini pragmatik siyosiy qarash egalladi. Hozirgi kunga kelib, respublika xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda yanada faol ishtirok etmoqda. Buning yaqqol isboti sifatida Turkiy davlatlar tashkiloti va Jahon savdo tashkiloti doirasida boshlangan muzokaralar misolida ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2023-yilning 3-oktabr kuni Qozog'iston respublikasining poytaxti Ostona shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdagi 10-sammitida unga a'zo va kuzatuvchi davlatlar ushbu tashkilot faoliyatini yanada muvofiqlashtirish va rivojlantirish yuzasidan o'zlarining taklif va mulohazalarini bayon etishdi. Ushbu sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etib, tashkilot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan o'zining taklif va mulohazalarini aytib o'tdi. Jumladan, davlat rahbari tomonidan 7 ta asosiy nuqtaga alohida e'tibor qaratildi:

- 1) Turkiy davlatlar Xartiyasini qabul qilish;
- 2) Turkiy davlatlar taraqqiyot bankini yaratish;
- 3) Turkiy davlatlar savdo munosabatlarini yanada yaxshilash;
- 4) Turkiy davlatlar o'rtasida logistika zanjirini yaratish;
- 5) Ekologiya yuzasidan lohiyalar ishlab chiqish;
- 6) Iqtidorli yoshlarni qo'llab quvvatlash;
- 7) Afg'onistondagi vaziyatga e'tibor berish.

Davlat rahbari tomonidan kiritilgan taklif va mulohazalarni tahlil qiladigan bo'lsak, tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida Xartiya ishlab chiqishdan asosiy ko'zlangan maqsad ular o'rtasida yagona qarash va standartlarni ishlab chiqishdan iborat. Undan tashqari, Turkiy davlatlar taraqqiyot banki esa davlatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiyani yanada mustahkamlashdan iborat, sababi iqtisodiy munosabatlarning yaxshi bo'lishi integratsiyani sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqadi. Prezident tomonidan alohida e'tibor berilgan yana bir mavzu bu yagona transport logistika tarmog'ini yaratish zarurligidir. Loyihani amalga oshirish uchun "TEMIR YO'L KENGASHI" yaratilishi kerakligi ta'kidlandi. Bu esa kelajakda loyihaning samarali faoliyatini ta'minlaydi. Sammitda ekologiya mavzusiga ham alohida to'xtalib o'tildi va bu borada vazirlar doirasida forumlar

tashkil qilish va ekologiyaga oid loyihalarni amalga oshirish zarurligi aytib o'tildi. Qolaversa, yoshlarga oid siyosat prezident e'tiboridan chetda qolmadi, jumladan, O'zbekistonda "Turkiy dunyo kreativ yoshlar markazi"ni tashkil qilish taklif qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad, iqtidorli yoshlarni bir nuqtada jamlash va ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda amaliy yordam berishdan iborat. Afg'oniston masalasiga to'xtalar ekan, davlat rahbarimiz bu davlatni tinch va barqaror rivojlanishi turkiy dunyo uchun juda muhimligi ta'kidladi.

Turkiy davlatlar bilan integratsiyaga kirishish O'zbekiston uchun ko'p jihatdan manfaatli bo'ladi, sababi respublikaning turkiy davlatlar bilan hech qanday jiddiy siyosiy muammolari mavjud emas. Qolaversa, turkiy dunyo o'zining ichiga qariyb 400 millionlik kishini qamrab oladi, bu esa, katta bozor va katta iqtisodiy imkoniyatlar deganidir [1].

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosat masalalariga bag'ishlangan ko'pgina hujjatlarida o'zining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida Markaziy Osiyo mintaqasini belgilaydi [2]. Bunga bir nechta sabablar mavjud. Xususan, bu mintaqaga yagona tarix, din, madaniyatga ega va mana shu omillar mintaqada joylashgan davlatlar o'rtasida munosabatlarning yaxshi bo'lishida ijobiy rol o'ynaydi. O'tgan davr mobaynida mintaqada davlatlari o'rtasida ko'plab mintaqaviy integratsiya loyihalarini amalga oshirishga harakat qilindi. Lekin vaziyatga xolis baho beradigan bo'lsak, bu loyihalardan hech biri jahondagi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan integratsion loyihalar singari amalga oshmadi. Biroq so'ngi yillarda davlatlar o'rtasida munosabatlar qayta ko'rib chiqildi va oldingi davrga nisbatan biroz yaxshilandi. O'zbekiston mintaqadagi barcha davlatlar bilan savdo va iqtisodiy munosabatlardan to'la manfaatdor va mintaqadagi davlatlar bilan integratsion loyihalarini amalga oshirishdan o'zining strategik manfaatlarini ko'zlaydi. Undan tashqari, O'zbekiston mintaqaning bir bo'lagi bo'lgan Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi va bu davlat bilan munosabat o'rnatishdan manfaatdor. Sababi Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi O'zbekistonning azaliy orzusi bo'lgan dengizga chiqish muammosini hal qilishi mumkin. Bu borada hozirgi kunda ikkala tomon o'rtasida muzokaralar olib borilmoqda va

munosabatlar o'z tabiatiga ko'ra ijobiy deb baholashimiz mumkin.

Keying yillarda Markaziy Osiyoga, xususan, O'zbekiston Respublikasiga Xitoy davlatining qiziqishlari ham tobora o'sib bormoqda. Bunga sabab mintaqada joylashgan davlatlar tabiiy resurslarga boyligi bilan baholansa, ikkinchidan, Markaziy Osiyo strategik nuqtai nazardan muhim makro hudud hisoblanadi. Xitoyning global mega loyihasi "BIR MAKON BIR YO'L" ning ma'lum bir qismi ham respublika hududidan o'tadi. O'zbekistonning ushbu loyihada ishtirok etishi iqtisodiy tomondan foydali bo'lishi mumkin: logistika muammosi hal etiladi, davlatlar o'rtasida tovar ayirboshlash osonlashadi, savdo hajmining oshishi esa bevosita respublikaning yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, buning ba'zi oqibatlarini ham hisobga olish ham zarur. Masalan, milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari yuzasidan davlat siyosati ishlab chiqilishi zarur va siyosiy jihatdan ham ba'zi ehtiyotkorlik ham talab qilinadi. Ushbu loyihada ishtirok etish O'zbekiston Respublikasi uchun tashqi siyosiy vektorlari o'rtasida balansni ushlashda qo'l kelishi mumkin. Mana shu nuqtai nazardan ham Xitoy davlati respublika uchun strategik jihatdan ahamiyatga ega hisoblandi.

O'zbekiston uchun AQSh yana bir strategik va iqtisodiy jihatdan muhim davlat hisoblanadi. Hech kimga sir emaski, AQSh dunyoda iqtisodiy, texnologik nuqtai nazardan yetakchi davlatlardan biridir va bu davlat bilan yaqinlashuv respublikaga yangi texnologiyalarning kirib kelishini ta'minlaydi va investitsiyalar oqimini ham oshiradi. Shu kunga qadar ikki davlat o'rtasida qator rasmiy uchrashuvlar tashkil qilindi. Xususan, "Markaziy Osiyo+1" doirasida ko'plab uchrashuvlar tashkil qilinmoqda. Bu uchrashuvlar davomida eng ko'p ta'kidlangan masala bu integratsiya masalasidir. AQShlik ko'plab ekspertlarning fikricha, bu davlat Markaziy Osiyo integratsiyasidan manfaatdor va bu yerda bo'layotgan islohotlardan mamnun. Albatta bunday o'zgarishlar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yanada iliqlashuviga sabab bo'lishi shubhasiz. AQSh davlat kotibi Entoni Blinken o'zining O'zbekistonga tashrifi chog'ida respublikada bo'layotgan islohotlarni ijobiy baholadi va bu islohotlar davom etishi kerakligini

ta'kidladi. So'nggi yillarda respublikaga AQSh va shunga o'xshash davlatlarning e'tibori oshganligi, shubhasiz, mintaqa strategik nuqtai nazardan kata ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi.

Tarixan Rossiya mintaqaning, xususan, respublikaning asosiy savdo-iqtisodiy sherigi bo'lib kelgan. So'nggi 150 yil ichida esa bu munosabatlar yanada mustahkamlandi. Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi yuqori va ikki davlat o'rtasida strategik sherikchilik darajasida munosabatlar o'rnatilgan [3]. Rossiyaning mintaqaga taklif qiladigan loyihalaridan biri bu "YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQI" hisoblanadi. Hozirgi kunda respublika bu tashkilotda kuzatuvchi maqomida va hozircha hukumat tashkilotga to'la a'zo bo'lishga shoshilmayapti. Tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun savdo munosabatlarida o'sish kuzatilishi va'da qilinsa-da, lekin hukumat bu borada chuqur o'ylangan qaror qabul qilishi maqsadga muvofiq. Rossiya keyingi yillarda ham respublika uchun asosiy savdo sherigi bo'lib qolaveradi va shunday bo'lishi ijobiy hisoblanadi. Sababi Rossiya va respublikamiz o'rtasida transport logistika tizimi yaxshi rivojlangan va Rossiya bozorida o'zbek tovarlariga ehtiyoj yuqori hisoblanadi. Mana shu omillarni hisobga olgan holda, Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston tashqi siyosiy vektorida muhim ahamiyatga ega davlat hisoblanadi [4].

Shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda respublikaning ichki va tashqi siyosatida ko'plab ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi va bu xalqaro hamjamiyat tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda. Islohotlar natijasida xalqning huquqiy va siyosiy madaniyatida ham o'sish kuzatilmoqda va bu fuqorolik jamiyatini yaratish yo'lida muhim qadam hisoblandi. Respublika bugungi kunga kelib har qachongidan ham dunyoning muhim nuqtalaridan biri bo'lib turibdi va bu yerda dunyoning yetakchi davlatlarining manfaatlari to'qnashayotganini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi tendensiyalarga qaraydigan bo'lsak, davlatimiz asosiy e'tiborini Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratmoqda. Qolaversa, Xitoy davlati bilan ham munosabatlar, ayniqsa, savdo-iqtisodiy sohalarda har

qachongiga nisbatan chuqurlashgan. Rossiya ham bu mintaqa bilan nafaqat iqtisodiy, balki harbiy sohada ham kelishuvlarga erishishni xohlaydi, bu borada respublikamiz hukumati jiddiy bosh qotirishi kerak. So'nggi yillarda AQSh ham bu mintaqada o'zining manfaatlarini izlashga jiddiy kirishgan va tomonlar o'rtasida ko'plab savdo va iqtisodiy kelishuvlarga erishildi. O'zbekiston hukumatining asosiy vazifasi bugungi sharoitda bo'layotgan bu o'zgarishlardan unumli foydalanish va pragmatik siyosatini barqaror davom ettirishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo'ronov S. O'zbekiston geosiyosati, Toshkent, 2021.111-118 b.
2. Umarov X.P. O'zbekiston Respublikasining geosiyosiy holatining geostrategik jihatlari, Toshkent,2004.
3. Safoyev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat, Toshkent,2005.
4. Sirojov O. Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik jarayonlari. Toshkent,2016.
5. Kadirova, Nargiza Rashitovna. "ANALYSIS OF IMMUNITY BASED ON THE VIENNA CONVENTION ON CONSULAR RELATIONS WITHIN THE CONTEXT OF THE NATIONAL INTERESTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." International Journal of Legal Studies (IJOLS) 4.2 (2018): 441-455.
6. Mirzayuldashevna, Khamdamova Shirin. "Practical realization of the classical principle of the separation of powers: foreign experience and achievements of Uzbekistan." Вестник науки и образования 14-1 (50) (2018): 51-55.
7. Исраилова, Зарина. "Понятие «эффективность» и его критерии в деятельности депутатов представительного органа государственной власти на местах." in Library 19.4 (2019): 59-63.